UO‘K 415.412.51=20(021)

TILSHUNOSLIK TERMINLARINING ETIMOLOGIK QATLAMLARGA MUNOSABATI

Suyarova Nargiza Yuldoshevna,
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori,
professor B.Mengliyev taqrizi asosida
suyarovanargiza345@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-5564-7133

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilshunoslik terminlarining chet tilidan o‘zlashish jarayonidagi qonuniyatlari ochib berilgan bo‘lib, ayniqsa tilshunoslik terminlari tarkibida Yevropa tillaridan so‘z olish ko‘plab uchrashi aniqlangan. Mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy munosabatlarning yaxshilanishi, ayniqsa, bir-biriga qo‘shni xalqlarning o‘zaro aloqalari natijasida yangi g‘oyalar, fikrlar, tushunchalar qabul qilinishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zlashma so‘zlar, termin, terminologiya, leksika, lug‘at boyligi, so‘z yasalishi, etimologik qatlam, tarixiylik tamoyili*

THE RELATIONSHIP OF LINGUISTIC TERMS TO ETYMOLOGICAL LAYERS

Abstract. *This article examines the patterns of borrowing linguistic terms from foreign languages, with particular attention to the widespread occurrence of terms borrowed from European languages within linguistic terminology. It substantiates that the improvement of socio-political, economic, and cultural relations between countries and peoples, especially the interaction among neighboring peoples, contributes to the adoption and integration of new ideas, concepts, and notions.*

Keywords: *loanwords, term, terminology, lexicon, vocabulary, word formation, etymological layer, principle of historicity.*

СООТНОШЕНИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ С ЭТИМОЛОГИЧЕСКИМИ СЛОЯМИ

Аннотация. *В статье рассматриваются закономерности заимствования лингвистических терминов из иностранных языков, в частности отмечается широкое распространение терминов, заимствованных из европейских языков, в составе лингвистической терминологии. Обосновывается, что развитие и укрепление социально-политических, экономических и культурных связей между странами и народами, особенно взаимодействие между соседними народами, способствует восприятию и усвоению новых идей, мыслей и понятий.*

Ключевые слова: *заимствованные слова, термин, терминология, лексика, словарный состав, словообразование, этимологический слой, принцип историзма.*

Kirish. Umumxalq tilining rivojlanishi hamma vaqt uning boshqa tillar bilan o‘zaro aloqalarining kengayishiga bog‘liq holda davom etadi. Shu o‘rinda qayd etish joizki, boshqa chet til unsurlarining kirib, o‘zlashib qolishi tarixiy va qonuniy hodisa hisoblanadi. Mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy munosabatlarning yaxshilanishi, ayniqsa, bir-biriga qo‘shni xalqlarning o‘zaro aloqalari natijasida yangi g‘oyalar, fikrlar, tushunchalar qabul qilinadi. Bu tarixiy jarayon muayyan xalq yoki tilning o‘ziga xos taraqqiy etishiga, til lug‘at tarkibining boyishiga olib keladi.[1:90]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zaro aloqada bo‘lgan xalqlar tillarining bir-birlariga ta’sir etishi, bir-birini boyitishi uchun xizmat qilishi, bunday o‘zaro ta’sir leksikada samarali kechishi ayni haqiqatdir. Xalqlarning o‘zaro aloqalari, tillarning bir-biriga ta’siri turli davr va sharoitlarda o‘ziga xos ko‘rinishda davom etadi. Bunday o‘zaro ta’sir ayrim davrlarda kuchsiz darajada bo‘lsa, boshqa bir davrda sezilarli va samarali kechadi. Shu bilan birga, ba’zi vaqtlarda mazkur jarayon stixiyali tarzda ro‘y bersa, uni ma’lum qonun-qoidalar asosida yo‘lga solish, unga insoniyatning faol aralashuvi talab etiladi.[7:98]

Ma’lumki, tilning lug‘at tarkibi murakkab rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Shu bois til leksikasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini bilish uchun lug‘at fondidagi so‘zlarni geneologik nuqtayi nazardan o‘rganish, ularni etimologik qatlamlarga ajratish zarur. Bu, albatta, til lug‘at tarkibini ilmiy

tushunish, ilmiy tahlil qilish borasida amalga oshiriladi. Til lug‘at tarkibini tarixiy-etimologik jihatdan, ya’ni so‘zlarni genetik manbalariga ko‘ra tadqiq etish o‘zbek tilining qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan aloqasini, mazkur tilda qaysi tillarning ta’siri mavjudligini aniqlashga ko‘maklashadi. Pirovard natijada, bunday izlanishlar o‘zbek tili so‘z boyligi, grammatik qurilishining tarixiy yo‘llarini anglashda nihoyatda muhimdir.[4:90] Binobarin, tilning leksik tarkibini genealogik manbalariga muvofiq guruhlash, ilmiy jihatdan tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Tildagi leksik qatlamlarni lingvistik tadqiq etish leksik-semantik taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda juda muhimdir. Zotan, leksika tarix, madaniyat, fan va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ilmiy tahlilda ularni hisobga olmasdan turib, so‘z ma’nolarining o‘zgarish manbalari va sabablarini aniqlash mushkul.[8:123]

O‘zbek tilida qo‘llanuvchi, aniqrog‘i, maktab darsliklarida faol foydalanilgan tilshunoslik terminlarining etimologik qatlamlarga munosabatini tadqiq etar ekanmiz, ularning adadi 77 ta ekanligiga guvoh bo‘ldik. Biz o‘z izlanishlarimizni faqat bir asosli, ya’ni sodda o‘zakli atamalarning tadqiqi bilan cheklandik. Chunki tilshunoslikka oid barcha turdagi terminlarning barchasini tahlil va tadqin etishga ishimiz hajmining cheklanganligi izn bermaydi; bu alohida tadqiqot mavzusi bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek tilshunosligi XX asr boshlaridan o‘z til doirasida va xalqaro tillar miqyosida terminlardan foydalanishga o‘tdi. Undan oldin esa, asosan, arabcha terminlardan foydalanib kelingan. Asr boshlarida esa Abdurauf Fitrat tilshunoslik terminlarini o‘zbek tili me’yorlariga moslashtirishga intiladi. Sarf (morfologiya), navh (sintaksis) singari arabcha terminlar azaldan qo‘llanilgan, Fitrat ham shu terminlardan foydalanish bilan birga bir qator terminlarni chig‘atoycha (o‘zbekcha) variantlarini tilshunoslikka olib kiradi (Masalan, Yasama sonlar ma’nosi va yasovchi qo‘shimchalariga ko‘ra: 1) sira son, 2) ulush son, 3) chama son, 4) sanalmishsiz son, 5) o‘rtoqlik son, 6) oshirma son, 7) o‘lchov sonlarga bo‘linadi).[10]

Hozirgi o‘zbek tilining o‘rta maktab darsliklarida quyidagi faol tilshunoslik terminlari qo‘llanadi: *aniqlovchi, bog‘lama, bog‘lovchi, izohlovchi, ildiz, kelishik, kesim, kiritma, ko‘makchi, qatlam, qo‘shimcha, olmosh, ot, otlashish, sifatlovchi, son, taqlid, to‘ldiruvchi, undalma, undov, undosh, unli, urg‘u, ega, egalik, yuklama; harf, fe’l, nutq, uslub, lug‘at, sifat, daraja, asos, mayl, zamon, nisbat, hol; gap, ravish; akustika, fonema, singarmonizm, grafika, orfografiya, leksikologiya, semantika, leksika, omonim, omofon, paronim, sinonim, antonim, stilistika, polisemiya, leksikografiya, sintaksis, organ, dialekt, morfologiya, kategoriya; transkripsiya, affiks, affiksatsiya, predikat, predikativlik, variant, valentlik, kompozitsiya; fonetika, orfoepiya, omograf, arxaizm; jargon, argo* kabi.

Bu atamalarni dastlab ikki guruhga ajratgan holda tadqiq etish mumkin: 1. O‘z qatlam tilshunoslik atamalari. 2. O‘zlashma qatlam tilshunoslik atamalari.

I. O‘z qatlam tilshunoslik atamalari 27 ta (46 foiz). Ular *aniqlovchi, bog‘lama, bog‘lovchi, izohlovchi, ildiz, kelishik, kesim, kiritma, ko‘makchi, qatlam, qo‘shimcha, olmosh, ot, otlashish, sifatlovchi, son, taqlid, to‘ldiruvchi, undalma, undov, undosh, unli, urg‘u, ega, egalik, yuklama.*

Bu turkiy tilshunoslik terminlari: a) tub va b) yasama singari ikki guruhni tashkil etadi.

a) tub turkiy tilshunoslik terminlari: *kelishik, kesim, olmosh, ot, son, taqlid, undov, urg‘u, ega.* Sirasini aytganda, ushbu terminlar hozirgi o‘zbek tili mezonlariga ko‘ra tub hisoblansa, ba’zilari tarixiy nuqtayi nazardan yasamaligi sezilib turadi. Masalan, *olmosh, ot, son, urg‘u, ega* so‘zlari sof tub hisoblanadi, *kelishik, kesim, taqlid, undov* so‘zlarini esa *kel+ish+ik, kes+im, taq+lid ur+g‘u* singari morfemalar yig‘indisidan vujudga kelganligini tarixiy so‘z yasalish mezonlari asosida tadqiq qilish mumkin.

b) yasama turkiy tilshunoslik terminlari: *aniqlovchi, bog‘lama, bog‘lovchi, izohlovchi, kiritma, ko‘makchi, qatlam, qo‘shimcha, otlashish, sifatlovchi, to‘ldiruvchi, undalma, unli, egalik, yuklama.*

Turkiy yasama terminlar, asosan, affiksatsiya yo‘li orqali hosil qilingan bo‘lib, asosga faol yasovchilar vositasi bilan hosila terminlar yuzaga kelgan. Ularni quyidagicha asos+yasovchi=hosila qolipida joylashtirish o‘rinli bo‘ladi:

-chi: *aniqlovchi, bog‘lovchi, izohlovchi, ko‘makchi, sifatlovchi, to‘ldiruvchi;*

- ma: *bog‘lama, kiritma, qo‘shimcha, undalma, yuklama.*

-(a)m: *qatlam;*

- (i)sh: *otlashish;*

-li: *unli;*

-lik: *egalik.*

II. O‘zlashma qatlam tilshunoslik terminlari 30 ta (54 foiz) leksik birlikni tashkil etadi.

O‘zlashma terminlar ham ikki toifaga: I. Sharqiy tillardan o‘zlashgan terminlar; II. G‘arbiy tillardan o‘zlashgan terminlar ajratiladi.

1. Sharqiy tilarning mansublik darajasi ham 2 xil: 1. Somiy tillarga xos tilshunoslik terminlari; 2. Eroniy tillarga oid terminlar.

Arablar VII asrning ikkinchi yarmi – VIII asrda O‘rta Osiyoni bosib olganlaridan so‘ng yerli aholiga majburiy ravishda islom dinini qabul qildirganlar. Maktab, madrasa, masjid va idora ishlari asosan arab yozuvi hamda arab tilida olib borilgan. Shu tariqa arab tilining kitobiy til va davlat tili bo‘lib qolish an’anasi ancha vaqtgacha davom ettirildi. Bu esa, o‘z navbatida, mahalliy aholining arab tilini puxta o‘zlashtirishiga, shuningdek, o‘zbek-arab ikki tilliligi (bilingvizm) hodisasining paydo bo‘lishini ta’minladi.

Tahlil va natijalar. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, arablar hukmronligi davrida arab yozuvi mahalliy yozuvlar (turkiy run, xorazm, sug‘d) yozuvlarining iste’molini chekladi. Endi ilmiy arab tilida va badiiy asarlar fors-tojik tilida bitila boshladi. Natijada, mahalliy aholi vakillari o‘z ona tili bilan bir qatorda, arab tilida ham yoza oladigan bo‘ldi. Shuning uchun ham mahalliy mashhur olimlar: Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, Forobiy, Ahmad Farg‘oniylar o‘z ilmiy asarlarini arab tilida bitganlar.[8:66]

Arab tilining o‘zidan bevosita so‘z olish XI asrdayoq deyarli to‘xtagan bo‘lsa-da, undan keyingi davrlarda bitilgan ilmiy va badiiy manbalarda, shuningdek, eski o‘zbek tili yozma yodgorliklarida saqlangan arabcha so‘z guruhlari u yoki bu davrlarda faollashib turdi. Masalan, XX asr boshlarida o‘zbek tilida ilmiy terminlar sifatida faol istifoda etilgan arabcha so‘zlar ana shu keyingi manbalardan olingan.

Tilshunoslik terminlarining ushbu talqinida o‘zbek tilshunosligida somiy (arab) tillardan o‘zlashish darajasi dominantalik qiladi. Chunonchi: somiy (arab) tillarga oid tilshunoslik terminlari 12 ta (20 foiz). Ular quyidagilar:

harf – “chet”, “qirra”, “chegara” yoki “yonoq” singari lug‘aviy ma’noga ega;

fe’l – (فعل) “ish”, “harakat”, “qilmish” yoki “bajarish” singari lug‘aviy ma’nolardan shakllangan;

nutq – (**نطق**) aslida “gapirish”, “so‘zlash”, “tovush chiqarish”, “nutq ifodalash” kabi lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan ot so‘z turkumidan kelib chiqqan;

uslub – (أسلوب) termining yuzaga kelishi “yo‘l”, “usul”, “tarz”, “usul-asos”, “to‘g‘ri yo‘l” yoki “maxsus usul” kabi lug‘aviy ma’nolarga bog‘lanadi;

lug‘at **لغة (**luġa**)** “til”, “nutq”, “talaffuz” yoki “so‘z” maqomidagi lug‘ayiy ma’nolarni belgilovchi termindir;

sifat “**صِفَة” (ṣifa)** “tavsiflamoq”, “vasf etmoq”, “belgilamoq” singari ma’nolarga teng tilshunoslik termini sanaladi;

daraja **دَرَجَةٌ**(daraja(t)) “zina”, “pog‘ona”, “qavat”, “daraja” (mavqe) kabi leksik ma’nolarni ifodachisi bo‘lgan termin;

asos أساس (asās) “poydevor”, “negiz”, “o‘zak”, “tamal toshi”, “biror narsaning ustiga quriladigan asosiy qism” singari semantik qiymatga teng bo‘lgan tilshunoslik termini;

mayl **(ميل) “**og‘ish”, “qiyshiqlik”, “yon tomonga egilish”, “bir tomonga og‘ish” kabi mantiqiy ifodalarga ega bo‘lib, termin sememasiga o‘tganda bir qadar o‘zgacha ma’nolarni kashf etadi;

zamon **“zaman”** (زمن) so‘zi arab tilida “vaqt”, “davr”, “ayrim vaqt oralig‘i”, “mahal” lug‘aviy ma’nolarni ifoda etadi. O‘zbek tilida metaforik ma’nosi bilan grammatik ma’noni ko‘rsatish uchun qo‘llanadi;

nisbat “nasaba” (نَسَبَ) fe’lidan olingan bo‘lib, aynan “bog‘ladi”, “nisbat berdi”, “qarindosh qildi” ma’nolarini ifodalasa-da, termin sifatida fe’lning subyektga bo‘lgan munosabatini belgilash uchun qo‘llanadi;

hol “حَال” (ḥāl) “holat”, “ahvol”, “vaziyat”, “turg‘unlik”, “ayni damdagi ko‘rinish” semalari bilan metforik qiymat kasb etadi.

2. Eroniy tillarga oid terminlar.

Tarixdan yaxshi bilamizki, O‘rta Osiyo hududida turkiy va eroniy tilli xalqlar azaldan yonma-yon qo‘shnichilikda umrguzaronlik qilishadi. Forsiylar Ahamoniylar hukmronligi davrida (mil. avv. VI-IV asrlar) katta ta’sirga ega bo‘lgan bo‘lsa, ularning keyingi yirik oqimi Movarounnahr hududlariga arablar bilan birga kirib keldi. Shuning natijasida, turkiylar bilan eroniyzabon aholi o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy aloqa davom etib keladi.

Professor E. Begmatovning yozishicha, turkiy urug‘ va qabila tillari, jumladan, o‘zbek xalqi tilining eroniy tillar bilan aloqasi uch davriy xususiyat bilan xarakterlanadi: 1. Turkiy urug‘, qabila tillarining qadimiy eroniy qabila va urug‘ tillari bilan aloqasi va qo‘shilishi (qadimiy davrlarda). 2. O‘zbek tilining forsiy til bilan (IX-X, XI-XV asrlar) aloqasi. 3. O‘zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi (qadimdan to hozirgacha).

Ko‘rinadiki, uzoq yillik hamkorlik natijasida forsiy so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynagan: a) o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan birgalikda, bir xil ijtimoiy sharoit,

iqtisodiy va madaniy-ma’naviy muhitda yashab kelayotganligi; b) o‘zbek va fors-tojik tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi; v) fors-tojik tillarida ijod qilish an’analarining qadimiy ekanligi natijasida; g) adabiyot, san’at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik mezonlari asosida.

O‘zbek tilshunosligida faol iste’molda bo‘lgan terminlar orasida eroniy qatlamga oidlari chegaralangan. Ular quyidagi **ikki** terminni tashkil etadi (1 foiz):

1. ***Gap*** (f.-t.) “gap” (گپ) – o‘zbek tilida “so‘z”, “nutq”, “gaplashish” ma’nolari bilan iste’mol etilsa, fors-tojik tilida “Kalimai “gap” dar zaboni toҷikī vojai guftugӯī buda, doroi yakchand ma’noi lug‘avī meboshad. Behtarin ma’xaz baroi tashxisi in voja Farhangi zaboni toҷikī ast. Ma’nohoi asosii on inhoyand:

- Suxan va guftor: Har guna suxan, nutq yo guftugӯ miyoni odamon.
- Mas’ala va mavzӯ’: Xususiyati yagon mas’ala yo voqea (masalan: “Gap dar sari hamin ast”).
- Ovoza va gap-g‘aybat: Sharhu ezohoti pasisari, ovozaho va naqlhoi mardumī”.

Tarjimasi: Tojik tilidagi “gap” so‘zi so‘zlashuv so‘zi bo‘lib, bir nechta leksik ma’noga ega. Bu so‘zni aniqlash uchun eng yaxshi manba “Farhangi zaboni toҷiki” tili lug‘atidir. Uning asosiy ma’nolari:

Nutq va so‘z: Odamlar o‘rtasidagi har qanday nutq, nutq yoki suhbat.

Masala va mavzu: Masala yoki hodisaning mohiyati (masalan: “Masalaning indallosi – shu”).

Mish-mish va g‘iybat: Aytilgan fikrdan keyin kelib chiqadigan gap-so‘zlar, mish-mishlar.

Gap tilshunoslikda eng faol qo‘llanuvchi termin. Uning tarixiy etimologik qatlamga munosabati esa foydalanuvchilarning nazaridan ancha chetda qolgan.

2. ***Ravish*** forscha “رویش“ (raviš) so‘zidan olingan bo‘lib, “yurish”, “yurish-turish”, “usul”, “tarz”, “yo‘l” degan lug‘aviy ma’nolarni ifoda etadi.

II. G‘arbiy tillardan o‘zlashgan terminlar.

Bu siraga kiruvchi o‘zlashma terminlarni a) yunoncha so‘zlar 22 ta (21 foiz), b) lotincha 8 ta (13 foiz), v) grekcha 4 ta (7 foiz) va fransuzcha 2 ta (2 foiz) ajratib tasnif etamiz.

a) yunoncha terminlar**.** O‘zbek tiliga o‘zlashgan yunoncha terminlarning salmog‘i ancha yuqori bo‘lib, ular turli sohalarda qo‘llanib kelinadi. Yunon tiliga xos terminlar bir muncha qadimiy bo‘lib, tillarga singish darajasi behad yuqori bo‘lganligi tufayli ularning o‘zlashmalik qiymati hatto sezilmaslik darajasiga borib etgan. Ushbu bois tubandagi dalilga e’tiborimizni qarataylik:

“Afandi so‘zi asli yunoncha desa, odamning ishongisi kelmaydi. Arabcha bo‘lishi mumkin, forscha bo‘lishi mumkin, lekin yunoncha emas, degan o‘y o‘tadi xayoldan. Biroq tasavvurlarimiz ba’zan bizni aldaydi.

Bugun afandi deganda ko‘proq kulgili voqealar qahramoni Nasriddin afandini yoki latifani tushunamiz. Lekin bu so‘z o‘zbekchada *janob, hurmatli, o‘qituvchi* kabi ma’nolarni ham anglatgan. Bugun esa uni bu ma’nolarda qo‘llash eskirib ulgurdi.

Yangi yunon tilida ***aféntis*** – *hokim, boshliq*, o‘rta yunonchada ***avféndis*** – *hurmatli kishi, ustoz*, eski yunon tilida esa ***auféntēs*** – *sudda o‘zini o‘zi himoya qila oluvchi kishi* ma’nolarini anglatgan. U turkchaga **afandi** shaklida o‘zlashgan. Afandi Usmonli sultonligida martaba belgisi va harbiy unvonni bildirgan. Bu unvon yevropacha leytenantga to‘g‘ri kelgan. XIX asrdan boshlab *afandi* so‘zi sulton oilasi a’zolari, ulamolar, amaldorlarga nisbatan hurmat ma’nosida qo‘llana boshlagan. Usmonli sultonligida barcha savodxon kishilar afandi sanalgan.

Sandiq so‘zi asli yunonchaligi haqida oldinroq yozgan edik. Sandiqning kichik shaklini ifodalovchi **quti** so‘zi ham yunonchaga borib taqaladi. U yunon tilidagi *kutí(on) – kichik sandiq* so‘zidan hosil bo‘lgan. Qadimgi yunon tilidagi *kibōtion* so‘zi keyinchalik tovush o‘zgarishiga uchragan. Ba’zi olimlar bu so‘zni oromiy tilidagi *ḳubbtā – qubba, hujra* so‘zi bilan bog‘laydi.

Quti arab tili orqali o‘zlashgan, o‘zbekchada *sandiqcha, yashik, korobka, pilla qurti korobkasi va undan chiqqan ipak qurti* kabi ma’nolarni anglatadi.[5:67]

Hech qachon hech qaysi xalq, elat boshqa xalqlardan uzilib qolgan, o‘z holicha yashagan emas, aks holda, hech qanday taraqqiyot bo‘lmagan bo‘lur edi. Eng qadimiy va antik davrlarda uzoq masofalarni ot-ulovlarda bosib o‘tish ancha mushkul bo‘lgan vaqtlarda ajdodlarimiz Misr, Bobil, Markaziy Gretsiya, Yunoniston kabi mamlakatlar bilan aloqa qilganlar.

Darhaqiqat, eramizdan avvalgi VI – V asrlar, ya’ni ahamoniylar davrida grek karvonlari Buyuk ipak yo‘li, Eron va Markaziy Osivo orqali Hindiston, Xitoy, Oltov, Janubiy Sibirgacha borib savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanganligi tarixiy manbalarda aks etgan. Shu o‘rinda yana ta’kidlash lozimki, turli sohaga oid qadimgi yunon manbalarining arab tiliga tarjima qilinganligi ilm ahliga yaxshi ayon. Demak, turkiy tillar so‘z boyligidagi yunoncha o‘zlashmalar asrlar mobaynida olib borilgan madaniy munosabatlar va arab tili ta’sirida kirib kelgan.

Shuningdek, fors-tojik yoki arab tiliga xos deb hisoblanuvchi *zumurrud, marmar, diram, daftar, qandil* singari umumxalq tiliga xos, *iblis, shaytan* diniy atamalar, *Iskandar, Luqman, Safiyya* tarzidagi atoqli otlarning ham tub etimologik mohiyati yunoncha ekanligi aniq bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida ishlatiladigan quyidagi tilshunoslik terminlarining ham genezisini sinchiklab tadqiq qilish yunon tiliga xos ekanligini ko‘rsatdi:

akustika ***yunoncha*** *akustikos* so‘zidan olingan bo‘lib, “eshitaman” degan ma’noni anglatadi;

fonema ***yunoncha*** *phonema* so‘zidan olingan va aynan lug‘aviy ma’nosi “tovush” ma’nosiga to‘g‘ri keladi;

singarmonizm ***yunoncha*** *syn* – birga va *harmonia* – “ohangdoshlik”, “uyg‘unlik” so‘zlarining qo‘shilishidan, ya’ni kompozitsiya usuli orqali yuzaga kelgan termin;

grafika ***yunoncha*** *grapho* so‘zidan olingan va “yozaman”, “chizaman” ma’nolarini ifoda etadi;

orfografiya ***yunoncha*** *orthos* – “to‘g‘ri” hamda *graphia* – “yozuv” so‘zlarining sintezidan hosil bo‘lgan termin;

leksikologiya ***yunoncha*** *lexikos* “lug‘atga oid” va *logos* “ta’limot” singari ikki so‘zning birikishidan vujudga kelgan;

semantika ***yunoncha*** *semantikos* so‘zidan kelib chiqqan va “bildiruvchi”, “ifodalovchi” ma’nolarini anglatadi;

leksika ***yunoncha*** *lexis* – “so‘zga oid”, “lug‘aviy” ma’nolari bilan qo‘llanadi;

omonim ***yunoncha*** *homos* – “bir xil” va “*onyma”* – “ism” so‘zlari vositasi bilan yuzaga kelgan;

omofon ***yunoncha*** *homos* – “bir xil” va *phone* – “tovush” qismlari natijasida paydo bo‘lgan tilshunoslik termini;

paronim ***yunoncha*** terminini morfem tahlil qilganda, *para* – “*yonida*”, “*onyma”* – nom ma’nolarini anglatadi;

sinonim ***yunoncha*** *synonymos* so‘zidan olingan bo‘lib, uni kalkalash orqali o‘zbek tiliga o‘girganda “bir nomli” ma’nosini ifoda etadi;

antonim ***yunoncha*** *anti* – “zid”, “qarama-qarshi” va *onyma* – “nom” morfemalari birikuvidan yuzaga kelgan termin”

stilistika ***yunoncha***. stylos – “yozuv”, “xat tayoqchasi” degan ma’noni bildiradi;

frazeologiya (***yunoncha*** *phrasis* – “ifoda”, “ibora” va ...*logiya* – tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, tildagi barqaror birikmalar (frazeologizmlar), iboralar va maqol-matallarni o‘rganadi;

polisemiya ***yunoncha*** *poly* – “ko‘p” hamda *sema* – “belgi” morfemalari sintezi asosida hosil qilingan tilshunoslik termini”

leksikografiya ***yunoncha*** *lexikos* – “lug‘at” va *grapho* – “yozaman” singari ikki morfemaning qo‘shilishidan bunyod bo‘lgan bo‘lib, lug‘at tuzish tamoyillari bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslik bo‘limi sanaladi;

sintaksis ***yunoncha*** *syntaxis* so‘zidan olingan va aynan “tuzilma”, “tartib”, “birikma” ma’nolarini aks ettiruvchi termin;

organ ***yunoncha*** *organon* – o‘zbekcha “qurol”, “asbob” ma’nolariga teng keluvchi tilshunoslik atamasi;

dialekt ***yunoncha*** *dialektos* – “sheva”, “so‘zlashuv” ma’nolarini ifoda etuvchi termin;

morfologiya ***yunoncha*** *morphe* – “shakl”, *logos* – “fan” leksemalari sintezi vositasida paydo bo‘lgan termin;

kategoriya ***yunoncha*** *kategoria* terminini o‘zbek tiliga aynan o‘girganda “mulohaza”, “fikr” yoki “belgi” ma’nolarini ifoda etadi;

Xulosa. Demak, o‘zlashma qatlam terminlari ilmiy qiymat kasb etish bilan birgalikda o‘z ma’nosiga va ko‘chma ma’noga egalik asosida qo‘llanadi. Ular til taraqqiyotining muhim unsuri sifatida ilmiylik qiymatining muhim uzvlaridir. Bu terminlar, ayniqsa, Yevropa tillaridan o‘zlashgan atamalar, asosan, o‘zlarining lug‘aviy ma’nosini saqlagan tarzda tilda yashab keladi. Ularning o‘z qatlam doirasidagi muqobillari ma’no ko‘chishi – metaforik ma’no kasb etishlari bilan xarakterlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Раҳматуллаев Ш. Лексема ва фразема маъносини компонент таҳлилининг баъзи натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. – № 3. – Б. 16-25.

2. Rasulov R. Termin xususiyatlari // SamDU axborotnomasi. 2-son. – Toshkent, 2005. – B. 68.

3. Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии. – Москва, 1976. – С. 56–275.

4. Ричардс А.А. Философия риторики // Теория метафоры. – Москва, 1990. – С. 44-67.

5. Топоров В. Н. Николай Сергеевич Трубецкой – учёный, мыслитель, человек (К столетию со дня рождения) // Советское славяноведение, 1990, – № 6, 1991, – № 1. – С. 94–106.

6. Тоҳиров З. Метафора лексема-семемасининг прагматик семаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1983. – № 1. – Б.74-77.

7. Турсунов А. Вопросы словообразования в формальных моделях тюркских языков (на примере узбекского языка) // Шестая Международная конференция по компютерной обработке тюркских языков «TurkLang-2018». Труды конференции) – Ташкент, 2018. – 320 с.

8. Шарипова Ш. Суғурта сохасига оид терминларнинг лексикографик тадқиқи // Назарий ва амалий лингвистика (НАЛ), – Б. 207. file:///C:/Усерс/усер/Довнлоадс/206.пдф

9. Щербак А. К истории узбекского литературного языка древнего периода // Академику В.А. Гордлевскому к его 75-летию. – Москва, 1953. – С. 317-323.

10. http://uzschoolcorpara.uz

11. https://en.wikipedia.org/wiki/Lexicography

12. https://www.google.com/search?q=%D0%9F%